

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

3



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

32 655

109,4 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

30 663

107,9 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar

3 461


80,0 %



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilarini uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilarini, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyat hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyat ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar-sentabr oylarida, 3 461 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 2 128 ta, oilaviy korxonalar - 718 ta, xususiy korxonalar - 393 ta, muassasalar - 129 ta va boshqalar - 93 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 6 329 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 553 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 709 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 337 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 718 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 307 taga yoki 0,7 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 14 008 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 240 taga yoki 19,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 266 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 953 taga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 128 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 226 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 635 tani tashkil etib, ulardan 611 tasi yoki 96,2 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 151 taga yoki 13,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, viloyatimizda 68 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

28 494

ro'yxatdan o'tgan

956 kichik korxonalar

27 538 mikrofirmalar

26 648

faoliyat ko'rsatayotgan

945 kichik korxonalar

25 703 mikrofirmalar

3 284


2022- yilda yangi tashkil etilgan

22 kichik korxonalar

3 262 mikrofirmalar

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	5 565	7 280	8 899	11 313	13 266
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	612	750	1 152	1 625	2 047
sanoat	883	1 185	1 403	1 794	1 911
qurilish	934	1 323	1 499	1 794	2 010
savdo	1 641	2 196	2 775	3 609	4 429
tashish va saqlash	517	579	622	648	673
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	207	281	343	417	501
axborot va aloqa	78	97	108	139	164
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	64	88	101	154	190
boshqa turlar	629	718	896	1 133	1 341

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	139	307	394	539	611
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	36	82	99	120	128
sanoat	48	80	109	136	132
qurilish	9	17	21	38	42
savdo	25	84	118	184	236
tashish va saqlash	7	7	7	9	12
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	14	17	22	24
axborot va aloqa	1	2	2	1	2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	3	4	7	8
boshqa turlar	10	17	17	22	27

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	611	149	462
Termiz sh.	353	36	317
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	22	6	16
Bandixon	4	2	2
Boysun	9	6	3
Muzrabot	16	7	9
Denov	22	11	11
Jarqo'rg'on	15	9	6
Qumqo'rg'on	15	7	8
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	21	11	10
Termiz	49	15	34
Uzun	41	20	21
Sherobod	13	6	7
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

15




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni 32 655 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,0 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (8,1 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Sherobod (6,7 %), Termiz (6,5 %), Sariosiyo (5,2 %), Uzun (5,2 %), Angor (4,7 %), Boysun (4,7 %), Qiziriq (4,7 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 461 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda ularning Termiz sh. (16,5 %), Denov (11,3 %), Sherobod (8,0 %), Jarqo'rg'on (7,8 %), Qumqo'rg'on (6,5 %), Sho'rchi (6,4 %), Boysun (5,8 %), Angor (5,3 %), Sariosiyo (5,2 %), Muzrabot (5,2 %), Termiz (4,8 %), Uzun (4,6 %), Oltinsoy (4,4 %), Bandixon (4,3 %) va Qiziriq (3,9 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 266 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,6 %), Denov (9,7 %), Termiz (8,6 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Sherobod (6,7 %), Qumqo'rg'on (5,7 %), Sho'rchi (5,6 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,8 %), Qiziriq (4,5 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,4 %), Bandixon (2,3 %) va Oltinsoy (2,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2022- yil yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 718 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Denov (12,1 %), Boysun (11,3 %), Oltinsoy (11,0 %), Termiz sh. (8,1 %), Qiziriq (7,0 %), Sherobod (6,6 %), Jarqo'rg'on (6,1 %), Muzrabot (5,3 %), Sariosiyo (5,2 %), Uzun (5,0 %), Bandixon (4,7 %), Angor (4,6 %), Sho'rchi (4,6 %), Termiz (4,6 %) va Qumqo'rg'on (3,6 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories such as "Elon qilish taqvimi", "Metamolumotlar", etc. The central search interface has dropdown menus for "Xizmatlar ro'yxati", "Statistik klassifikatsiyalar", and "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati". The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" like "Ahollini ro'yxatga olish-2022" and "Harakatlar strategiyasi". A bottom note in Russian says "Чтобы активировать Windows, перейдите к настройкам" (To activate Windows, go to settings).

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**